

O‘RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN MAGISTRAL NEFT VA GAZ QUVURLARINI TEXNIK QAROV DAN O‘TKAZISH ISHLARI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Magistrat neft va gaz quvurlarini texnik qarovdan o‘tkazish ishlari fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me’yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Magistral neft va gaz quvurlarini texnik qarovdan o‘tkazish ishlari

1. Magistrat neft va gaz quvurlarini ishlatishning asosiy qoidalari;
2. Magistrat neft va gaz quvurlarining sinov va tekshiruvlari;
3. Magistrat neft va gaz quvurlarini ishlatishning asosiy uskunalari;
4. Magistrat neft va gaz quvurlari va kompressorlari;
5. Magistrat neft va gaz quvurlarini xavfsiz ishlatish.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/ r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Magistral neft va gaz quvurlarini ishlatishning asosiy qoidalari	Magistral neft va gaz quvurlarini ishlatishning asosiy yoʻnalishlariga doir masalalarni yechishini bilish, farqlash hamda hayotiy vaziyatlarda tahlil qilish boʻyicha bilim va koʻnikmalarga ega boʻladi.	30 %	12 ta
2	Magistral neft va gaz quvurlarining sinov va tekshiruvlari	Magistral neft va gaz quvurlarining sinov va tekshiruvlarining asosiy jarayonlariga oid masalalar yechishni, hayotiy vaziyatlarda tahlil qilishni, qonun va qonuniyatlarni hayotiy vaziyatlarda tahlil qilish boʻyicha bilim va koʻnikmalarga ega boʻladi.	10 %	4 ta
3	Magistral neft va gaz quvurlarini ishlatishning asosiy uskunolari	Magistral neft va gaz quvurlarini ishlatish jarayonlarining asosiy uskunolari boblariga oid masalalar yechishni biladi, qonun va qonuniyatlarni hayotiy vaziyatlarda tahlil qila oladi, magistral neft va gaz quvurlarini tarkibidagi elementlarni vazifalari boʻyicha bilim va koʻnikmalarga ega boʻladi.	12,5 %	5 ta
4	Magistral neft va gaz quvurlari va kompressorlari	Magistral neft va gaz quvurlari va kompressorlariga doir masalalar yechishda qonuniyatlarni toʻgʻri qoʻllay oladi, magistral neft va gaz quvurlari va kompressorlarini vazifalari boʻyicha bilim va amaliyotda qoʻllay olish koʻnikmalarga ega boʻladi.	10 %	4 ta
5	Magistral neft va gaz quvurlarini xavfsiz ishlatish	Magistral neft va gaz quvurlarini xavfsiz ishlatish bobiga doir vaziyatlarni yechish, farqlash hamda hayotiy vaziyatlarda qoʻllay olish. Magistral neft va gaz quvurlarini xavfsiz ishlatish talablari va yuzaga kelishi mumkin boʻlgan muammolarning echimini topish boʻyicha bilim va koʻnikmalarga ega boʻladi.	37,5 %	15 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	60 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	20 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O.G'.Hayitov, S.P.Abduraxmanova, O.Sarmanov, Z.Ya.Ravshanov
Magistral neft va gaz quvurlari va kompressorlar . Darslik. Toshkent - 2023.
2. Транспорт и храненияе нефти, нефтепродуктов и газа. Бунчук В.А.
Издательство «Недра» , М.1976,
3. Проектирование и эксплуатация газонефтепроводов. Рудаченко А.В.
Томск. ТПУ. 2008.